

FIRIBGARLIK JINOYATI VA QARZ MUNOSABATIDA MAJBURIYATNI BAJARMASLIK HOLATLARINI AMALIYOTDA FARQLASH: G'OYA VA TAHLILLAR, XORIJ AMALIYOTI

Uzoqova Dilsuz Nurbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti talabasi

uzoqovadilsuz@gmail.com

Annotatsiya. Maqola amaliyotda bir qancha xato va kamchiliklarga sabab bo'layotgan firibgarlik jinoyati va qarz munosabatining o'zaro farqlarini tahlil qiladi, muallif bu boradagi g'oyalar bilan bo'lishib, xorij amaliyotining qarashlarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: firibgarlik, qarz shartnomasi, jinoyatning subyektiv tomoni.

**DIFFERING FRAUD FROM SACKING OFF THE
OBLIGATION WHICH HAS ORIGINATED FROM A
CONTRACT IN PRACTICE: NOTIONS AND ANALYSES,
FOREIGN PRACTICE**

Uzoqova Dilsuz Nurbek qizi

Tashkent State University of Law

Student of Private law faculty

uzoqovadilsuz@gmail.com

Abstract. In this article the author analyses the differences which cause a lot of mistakes and trouble, between fraud crime and sacking off the obligation which is originated from a contract, and suggests experience in foreign practice sharing some ideas about it.

Keywords: fraud, debt contract, subjective feature of crime.

Kirish. Qarz munosabati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 732-moddasida shunday yoritiladi: "Qarz shartnomasi bo'yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo'la yoki bo'lib-bo'lib, o'shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyolarning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi". O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi firibgarlik jinoyati haqida bo'lib, ushbu jinoyatga aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish, degan ta'rif beriladi. Jinoyat qonunchiligida firibgarlik jinoyati ko'p uchraydigan jinoyat bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bunday ishlar bilan doimiy shug'ullanib keladilar. Firibgarlik jinoyatining turli ko'rinishlarda sodir etilishini ko'rish mumkin, bunda aynan qarz munosabati niqobi ostida sodir etilgan firibgarlik jinoyati maqolaning predmetidir. Fuqarolik huquqiy munosabat hisoblangan qarz munosabatida javobgar shaxsning majburiyatni bajarmaganligi nazarda tutilayotgan ayni muammoni keltirib chiqaradi, ya'ni qarz oluvchi shaxsni aldash yo'li bilan pulga egalik qilishni ko'zlaganmi (firibgarlik) yoki haqiqiy qarz munosabatida bo'lib, shunchaki bir qancha muammolarga duch kelgan holda bu majburiyatni bajarolmay qolganmi?

Bunday munosabatlarning yuqoridagi ikki xil ko'rinishda noto'g'ri talqin etilishi noqonuniy va adolatsiz ish yuritilishga sabab bo'ladi. Qarzda o'z majburiyatini bajara olmagan shaxsni firibgarga, aslida firibgarlik maqsadida ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsni fuqarolik munosabatidagi o'z majburiyatini bajara olmagan shaxsga almashtirilib qo'yilishi noqonuniy bir harakatdir. Qarz munosabatiga soxta kirishish orqali firibgarlik jinoyatini amalga oshirish mumkinligini hisobga olsak, bu ikki tushunchani bir –biridan farqlash qonunchilik uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi o'zining 2017-yil 11-oktabrdagi 35-sonli plenum qarorida firibgarlik va qarz majburiyatini bajarmaslikni amaliyotda farqlash yuzasidan tushuntirish berib o'tadi. Tushuntirilishicha, shaxs o'zganing mulkiga nisbatan egalikni, mulk huquqini o'z majburiyatlarini bajarmaslik niyati bilan qo'lga kiritisa, bunday qasd qarz munosabatiga kirishishdan oldin vujudga kelgan bo'lsa, ushbu harakat firibgarlik jinoyati deb baholanishi mumkin. Bunday qasd qarz shartnomasi tuzilishidan keyin vujudga kelgan bo'lsa, bunday xatti-harakat firibgarlik deb baholanishi mumkin emas. Bunda asosiy farq

subyektiv tomon, ya'ni majburiyatni bajarmaslik qasdining bor yo'qligi, bor bo'lganda qachon vujudga kelganligiga qaratilmoqda. Jinoyatning subyektiv tomoni bilish mumkin bo'lgan eng qiyin tushunchalardan ekanligi barchaga ma'lum. Shu sababli, mazkur Plenum qarori buni anglashda bir nechta yordamchi usullarni taqdim etmoqda.

Bular: O'zganing mulkini talon-toraj qilishga qaratilgan qasd mavjudligi to'g'risida, jumladan, aybdor tomonidan soxta hujjat yoki kafolat xatlaridan foydalanish; qarz mavjudligi yoki mulk garov ostidaligi to'g'risidagi ma'lumotni yashirish; bitimda taraflardan biri sifatida ishtirok etishi uchun soxta korxona (tashkilot) tuzilishi; kredit mablag'laridan maqsadga zid foydalanish yoxud ularni naqdlashtirish kabilar.

Bularning mavjudligi yordamchi dalillar xolos, shu tufayli asosiysi, shaxsning o'z majburiyatlarini bila turib bajarmaslik niyati borligini isbotlash lozim. Agar bunday qasd qarz munosabatiga kirishganidan so'ng kelib chiqsa, na qarz, na firibgarlik sifatida baholanadi, ya'ni bu holatda boshqa bir jinoyat - o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyati kelib chiqadi. Plenum qaroridan shuni tushunish lozimki, tegishli qonunchilik talablariga ko'ra tuzilmagan qarz shartnomasi firibgarlik jinoyati mavjud bo'lishi mumkinligidan bir darak. Sababi, agar taraflar o'rtasida qonuniy tuzilgan shartnoma bo'lsa, majburiyatni bajarmaslik yuzasidan kelib chiqayotgan nizoni shu shartnoma bo'yicha fuqarolik yoki iqtisodiy sudda hal qilish mumkin va bunday shartnomalarda huquqqa xiloflilik darajasi kam bo'ladi. Aksincha, belgilangan tartibga rioya qilinmasdan tuzilgan qarz shartnomalarida esa qarz olayotgan taraf qarz berayotgan shaxsni uning ishonchiga kirib, aslida yozma tuzilishi, yoki notarial tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnomani o'zining majburiyatni bajarmaslik niyatini amalga oshirish uchun tegishli tartibda tuzmaslikka undashi mumkin. Agar, qonuniy shaklda tuzilgan shartnomalarda majburiyatni bajarmaslik niyati avvaldan mavjud ekanligi ko'zga tashlansa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishni tegishli sud taraflarga tushuntirishi lozim.

Amaliyotda bu muammo boshqa osonroq usullar bilan hal qilinadi, subyektiv tomonni aniqlash eng murakkab vazifalardan bo'lganligi sababli, ko'pincha bu usul chetlab o'tiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mavjud ish bo'yicha firibgarlik yoki qarz munosabatini aniqlashda gumon etilayotgan shaxsning boshqa qarz munosabatlarida yoki mavjud ishdagi qarz berayotgan shaxs bilan bir nechta qarz munosabatida ekanligi masalasiga e'tiborini qaratadi. Agar shaxs bir nechta qarz munosabatida bo'lib, ularning ko'pchiligidagi majburiyat bajarilmagan bo'lsa,

surishtiruv, tergov organlari yoki tegishli sudlar tomonidan firibgarlik sifatida baholaniladi, aksincha bo'lsa, oddiy qarz munosabati sifatida e'tirof etiladi. Bu usul ham aniqlik kiritishda yordamchi ahamiyatga ega ekanligini tan olamiz, biroq faqat bir usul bilan masala hal qilinishi ishni to'laqonli hal etolmaydi. Shu sababli, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik, iqtisodiy sudlariga bu ikki tushunchani farqlashda yuqorida sanalgan barcha ahamiyat berilishi kerak bo'lgan jihatlarni e'tiborga olishlari tavsiya etiladi.

Xorijda bu boradagi amaliyot bilan bo'lishadigan bo'lsak, Buyuk Birtaniya qonunchilik tizimida bularni farqlash uchun ham subyektiv tomon asosiy aniqlanishi kerak bo'lgan asos ekanligini ko'rish mumkin. Buyuk Britaniya qonunchilik amaliyotidab Firibgarlik va qarzning farqi shunday ta'riflanadi: Firibgarlik va qarz munosabatida majburiyatni bajarmagan shaxsning xatti-harakatidan kelib chiqadigan oqibat bir xil bo'ladi, lekin firibgarlikni sodir etgan shaxs va shunchaki qarzni to'lay olmayotgan shaxs o'rtasida bir qancha farqlar bor. Firibgarlik to'lash bilan bog'liq hech qanday maqsadni o'z ichiga oplmay, mulkka egalik qilishni bildiradi, to'lanmay qolgan qarz esa qarzini to'lay olmayotgan shaxsning moliyaviy ahvolining o'zgarishini bildiradi. (The result may be the same, but there is a distinct difference between being defrauded by a customer and simply not being paid by one. Fraud involves obtaining goods or services without any intention to pay whereas a bad debt is where, usually because of a change in financial circumstances, a customer is unable to pay.)¹ Buyuk Britaniyada ko'rish mumkinki, qarz munosabatini tasdiqlashga asos sifatida qarzdor shaxsning moddiy ahvoli inobatga olinishi kerakligi nazarda tutilgan.

Yuqoridagi tahlillardan, xorij amaliyotidan kelib chiqib, firibgarlik va qarz munosabatlarini bir-biridan farqlashda quyidagi takliflarni berib o'tmoqchiman.

Barcha aniqlash usullari bir joyga to'planib, vaziyatni to'g'ri talqin etishda asosiy dalil bo'la oladi:

Dalillarni mustahkamlash maqsadida yana bir qancha jihatlarga e'tibor berilishi kerak, bu borada o'z takliflarimni berib o'taman:

1) Firibgarlik yoki qarz munosabatini farqlashda olinayotgan qarz predmetining nima maqsadda olinayotganligi va predmetdan foydalanish o'sha maqsadga qaratilgan-qaratilmaganligini inobatga olish zarur. Ko'p hollarda fuqarolik munosabatiga kirishayotgan shaxs qarz beruvchiga o'z moddiy ahvolini, olinayotgan qarz nima uchun zarurligini tushuntiradi hamda olingan pul yoki

¹ https://www.mytipsandadvice.co.uk/2014-02/bad-debt-or-fraud-is-there-a-difference-for-vat-UKTATXAR_EU14100701

moddiy ashyodan tegishli maqsadlarda foydalanadi. Firibgarlik qasdi bilan qarz munosabatiga kirishayotgan shaxs qarz beruvchi shaxsni ishontirish maqsadida yolg'on, aldov ishlatishi va qarz predmetini aytilgan maqsadga yo'naltirmaslik ehtimoli katta.

2) Qarz oluvchi qarzni qaytarish uchun kelishilgan vaqtda majburiyatini bajarish uchun qanchalik harakat qilgan, qilmaganligini inobatga olish ham farqlash uchun ma'lum bir asos bo'lib xizmat qiladi. Qarz qaytarish vaqtda u qanday moddiy ahvolda ekanligi, majburiyatni bajarish uchun yetarlicha imkoniyatga ega ekanligi yoki emasligi kabi holatlar o'rganib chiqilishi kerak. Qarz oluvchi majburiyatni bajarish kelishilgan vaqtda yetarlicha moddiy imkoniyati bo'la turib, majburiyatni bajarmoqchi bo'lmasa, bu holat firibgarlik uchun yana bir kichik dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu holatda qaytarmaslik qasdi qarz olgandan keyin vujudga kelgan bo'lsa-chi, degan savol tug'ilishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, bir asos bilan emas, bir-birini qo'llab-quvvatlaydigan bir nechta dalil yordamida haqiqiy holat aniqlanadi va bunga oydinlik kiritiladi. Aksincha, agar shaxs tegishli vaqtda moddiy ahvoli yomon ahvolda bo'lsa, majburiyatni bajarish imkoniga ega bo'lmasa, bu holat fuqarolik-huquqiy munosabat sifatida e'tirof etilish ehtimoli katta bo'ladi.

3) Inobatga olinishi mumkin bo'lgan yana bir holat borki, bu tegishli qarz olinganidan so'ng, qarz oluvchining xatti-harakatlariga e'tiborni qaratish. Qarz olgan shaxsning qarz beruvchi bilan munosabatlari, qarz olinganidan so'ng, qarzni bermaslik choralari ko'rgan-ko'rmaganligi tekshirib ko'rilishi mumkin. Masalan, mulk huquqida bo'lgan mol-mulklarni qarzni bermaslik maqsadida o'z mulkidan chiqarganligi, chet elga chiqib ketganligi yoki shunga o'xshash boshqa holatlar.

Yuqoridagi tavsiyalarning bittasi ishni yetarlicha to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatli bo'la oladi, deya olmaymiz, albatta. Mavjud asoslardan foydalanib, bir qancha dalillar yig'gan holda qonuniy qarorga kelish mumkin.

Quyida fuqarolik sudining qarz masalasi yuzasidan chiqargan hal qiluv qarorini yuqoridagi tahlillar asosida ko'rib chiqish lozim:

Tahlil qilinayotgan hal qiluv qarori Farg'ona viloyati Bog'ot tumanlararo sudining hal qiluv qarori bo'lib, da'vogar, javobgar ism-familiyasi, da'vo ko'rilgan sana va qarz summasi, sir saqlangan holda hal qiluv qarori taqdim etilgan.

Javobgar taraf da'vogartdan ma'lum summani mashina sotib olish uchun da'vogardan olgan, qarzni ikki oyda qaytarish haqida tilxat yozib bergan. Javobgar mashinani sotib olgan, ikki oy muddatda qarzni qaytarmagan, turli bahonalar bilan muddatni surib kelgan. Ish sudda ko'rilib, fuqarolik qonunchiligi bilan yetarlicha asoslantirilgan holda, da'vogar talabi qondirilgan. Ushbu jarayonni firibgarlik va

qarz munosabatini farqlash yuzasidan tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi asoslarga ko'ra bu munosabatni aynan qarz munosabatida majburiyatni bajarmaslik sifatida baholash lozim:

Birinchidan, qarz shartnomasi tilxat shaklida tuzilgan, Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga ko'ra, qarz shartnomasi tilxat orqali tuzilgan bo'lsa, shartnoma yozma shaklda tuzilgan deb e'tirof etiladi. Demak, taraflar o'rtasidagi qarz shartnomasi qonuniy tuzilgan. Bu yuqorida aytib o'tilgan 35-sonli Oliy sud plenum qarorida aytilganidek, qonuniy tuzilgan shartnomalar yuzasidan nizolar fuqaroviy nizo sifatida qaraladi, sababi fuqarolik sudlarida yetarlicha huquqiy ta'sir choralari mavjud. Bu tahlil ishning fuqarolik-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan majburiyatni bajarmaslik ekanligi, firibgarlik emasligiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi asos sifatida esa yuqoridagi takliflarga asoslangan holda tahlilni keltiramiz. Bu holatda qarz summasi mashina sotib olish maqsadida olingan, ma'lum muddatda mashina sotib olingan. Demak, qarz predmeti tegishli maqsadda foydalanilgan, bu holatni firibgarlik deya talqin qilinmasligi uchun yana bir asosdir.

Keying hal qiluv qarorini mavzu yuzasidan yoritadigan bo'lsak, mavjud hal qiluv qarori sudning quyidagi mazmunda:

Da'voagrdan javobgar 2022-yil 22-iyunda 3000 dollar miqdorida qarz olib, uni 2022-yil 1-iyulda qaytarib berishni va'da beradi va bu haqida tilxatda yozib imzo qo'yadi. Biroq, da'vogar qarzni 2022-yil 2-noyabrgacha ham ololmaydi, bu orada da'vogar ichki ishlar bo'limiga murojaat qiladi. Ichki ishlar bo'limida qarzdor qarzini kam fursatlarda qaytarishini aytib, biroq yana qaytarmaydi. Shu sababli qarz bergan shaxs sudga da'vo bilan chiqishga majbur bo'ladi. Sud mavjud holatlarni qonuniy tekshirib chiqib, talabni qanoatlantiradi va javobgar zimmasiga qarz summasi, davlat boji va pochta xarajatini to'lashni qo'yadi.

Ushbu sudda ko'rilgan nizoli vaziyatni tahlil qiladigan bo'lsak, ichki ishlar organi nega bu holatni firibgarlik deya kvalifikatsiya qilmadi, degan savol tug'ilishi mumkin, demak, bu qarz munosabati bo'lib, unda firibgarlik alomatlari ko'zga tashlanmagan. Yuqorida aniqlangan qarz munosabati deya hisoblashga asos bo'ladigan faktlar yuzasidan tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu jarayonda tilxat tuzilmoqda, ya'ni qarz shartnomasi yozma tuzilib, qarz shartnomasini tuzish qoidalariga rioya qilinmoqda. Shu sababli ham, plenum qarorida aytilganidek, qarz shartnomasi qonuniy asoslangan holda tuzilgan bo'lsa, buni firibgarlik deya malakalashga hojat yo'q, sababi bu bo'yicha qo'llanilishi mumkin bo'lgan fuqarolik choralari yetarli. Sud hal qiluv qarorida da'vogarning dalillar taqdim etganligi, qarz

shartnomasida haqiqatdan qarz olish niyati borligi qanday usullar bilan aniqlangani yetarlicha yoritilmagan.

Xulosa: Qarz munosabatida ishtirok etayotgan qarz oluvchining xatti-harakatlarini qarz shartnomasida majburiyatni bajarmayotganlik holatini fuqarolik-huquqiy munosabat yoki firibgarlik sifatida baholashda quyidagi masalalar hal qilinishi lozimligi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mulk huquqini qo'lga kiritishdan oldin majburiyatni bajarmaslik qasdining mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- Qarz oluvchi tomonidan qarz shartnomasini tuzishda turli xil aldov, yolg'onlardan foydalangan-foydalanmaganligi;
- Qarz shartnomasining qonuniy tartibda tuzilgan – tuzilmaganligi;
- Tegishli maqsad bilan qarz shartnomasi tuzilganida qarz predmetining shu maqsad uchun foydalanganlik-foydalanmaganligi;
- Qarz oluvchining qarz majburiyatini bajarish muddatida majburiyatni bajarish uchun yetarlicha imkoniyatga ega-ega emasligi, buning uchun qanchalik harakat qilgan-qilmaganligi;
- Qarz shartnomasi tuzilganidan so'ng, bu boradagi majburiyatini bajarmaslik uchun ma'lum xatti-harakat, urinishlar qilgan qilmaganligi.

Adabiyotlar / References:

1. O'zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 35-sonli qarori.
4. <https://www.mytipsandadvice.co.uk>.
5. Fuqarolik huquq darslik. Mualliflar jamoasi 2019-yil
6. Abdixakimov, I. (2022). Cyber Crimes in Digital Economy. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1(1), 1-5.
7. Fuqarolik huquqi R.Ro'ziyev V. Topildiyev 2011-yil
8. Mekhmonov, K. (2017). THE LEGISLATIVE FRAMEWORK AND THE PRINCIPLES OF CIVIL-LAW REGULATION OF RELATIONS CONNECTED WITH THE COMPUTER PROGRAMS AND DATABASES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Theoretical & Applied Science, (3), 23-28.
9. Fuqarolik huquqi. M.Abdusalomov, X.Azizov, B.Ahmadjonov va boshq.; TDYU. – Toshkent: Adolat, 2007
10. Toshmuxammatov, A., & To'xtayev, O. K. (2022). JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY VA HUQUQIIY ZARURIYATI. Elita. uz-Elektron Ilmiy Jurnal, 1(1), 5-16.
11. Doniyorbek, I. (2022). MAJBURIYATNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI QO'LLASH MUAMMOLARI.
12. Mehmonov, Q. A. (2018). Civil legal protection of a database according to the legislation of foreign countries. Review of law sciences, 2(1), 11.
13. O'G'Li, I. D. B. (2022). YURIDIK SHAXSLARNING UMUMIY YIG'ILISH QARORLARINI HAQIQIY EMAS DEB TOPISHNING HUQUQIIY OQIBATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 430-447.
14. Abdikhakimov, I. (2023). Legal Aspects of Social Media Marketing Contracts. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(1), 125-130.
15. Mekhmonov, K. (2020). Issues of legal regulation of relations related to information and communication technologies. Review of law sciences, 4(1), 17.

